



TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATI O'RNATILGANDAN SO'NG BUXORODAGI SIYOSIY VAZIYAT

Abdivaitov Sunnatillo Akmal o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

IGFO'M(Tarix) 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar:t.f.f.d.(PhD), dotsent O.M.Normatov

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin davrda Buxorodagi siyosiy vaziyat, fevral va oktabr inqiloblarining ta'siri, yosh buxoroliklarning faoliyati va Rossiyaning Buxoro amirligiga bosqini ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar. *fevral inqilobi, oktabr inqilobi, yosh buxoroliklar, Fayzulla Xo'jayev, «Kolesov voqeasi», Qiziltepa bitimi*

THE POLITICAL SITUATION IN BUKHARA AFTER THE ESTABLISHMENT OF SOVIET POWER IN TURKESTAN

Abdivaitov Sunnatillo Akmal o'g'li

Chirchik State Pedagogical University

1st-year Master's student in IGFO'M (History)

Scientific supervisor: PhD, Associate Professor O.M. Normatov

Abstract. *This article examines the political situation in Bukhara after the establishment of Soviet power in Turkestan, the impact of the February and October revolutions, and Russia's invasion of the Bukhara Emirate.*

Keywords. *February Revolution, October Revolution, young Bukharans, Fayzulla Khojaev, "Kolesov Incident"*



ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В БУХАРЕ ПОСЛЕ УСТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТУРКЕСТАНЕ

Абдиваитов Суннатилло Акмалович

Чирчикский государственный педагогический университет

1-й курс магистратуры IGFO‘М (История)

Научный руководитель: к.и.н., доцент О.М. Норматов

Аннотация. В статье рассматривается политическая ситуация в Бухаре после установления советской власти в Туркестане, влияние Февральской и Октябрьской революций, а также вторжение России в Бухарское ханство.

Ключевые слова. Февральская революция, Октябрьская революция, молодые бухарцы, Файзулла Ходжаев, «Kolesовское происшествие»

Rossiyada bo'lgan 1917 yil fevral inqilobining g'alabasi va Rossiya imperatori Nikolay II ning taxtdan voz kechganligi haqidagi xabarlar xonlik xalqi tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi. Negaki, podsho Rossiyasining yarim mustamlakasi hisoblanib kelgan Buxoroda bu davrga kelib ichki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar jiddiy tus olib borayotgandi. Buning boisi amirlikning moliyaviy-iqtisodiy hayoti va savdo-sotiq aloqalari ko'pdan buyon Rossiya iqtisodiyotiga bo'ysundirib kelinganligida edi. Bunda uning siyosiy jihatdan qaramligini gapirib o'tmasa ham bo'ladi. Binobarin, Rossiyadagi har bir o'zgarish, iqtisodiy yoxud siyosiy larzalar amirlikning hayot maromiga chuqur daxl etmasdan qolmasdi. Buning ustiga mamlakat ichki hayotida hokimi mutlaq, cheklanmagan vakolatlar sohibi bo'lgan amir va uning ko'p sonli ayonlari, amaldorlari mehnatkash ommaga hukm o'tkazib, zulm-sitamni kuchaytirib kelardi. Bu davrda Buxoro amirligi hududida jadidchilik harakati va undan o'sib chiqqan Yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati kuchaydi. Buxoro jadidlari 1917-yil inqilobiy voqealaridan foydalanib keng xalq manfaatlari foydasiga muhim siyosiy o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishga harakat etdilar. Rus rezidenti A.Ya. Miller va uning yordamchisi



N.A.Shulga Buxoro hukmdori Amir Said Olimxon va qo'shbegi Nasrullo tomonidan e'lon qilinadigan manifestni yana bir bor tahrir qilib, 20-mart kuni Muvaqqat hukumatning Tashqi ishlar ministriga yuboradi [Q. Rajabov O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Birinchi jild (1900-1939). – Toshkent : Fan, 2024. 341-347 betlar]. 7-aprelda amir Said Olimxon keng omma tazyiqi va Yosh buxoroliklarning islohiy talablari asosida Manifest chiqarishga majbur bo'ldi. Yosh buxoroliklarning Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja boshchiligidagi so'l qanoti 8-aprel kuni katta namoyish o'tkazadi. Biroq Said olimxon namoyishni kuch bilan bostiradi va namoyishni baxona qilib, 14-aprelda o'z farmonini bekor qiladi. 1917-yil kuzida Rossiyada yuz bergan oktabr davlat to'ntarishi va bolsheviklarning hokimiyatga kelishi Buxoroda ham aks-sado berdi. Ayni vaqtda Buxoroga bevosita tutash rus aholi manzilgohlarida sovet tuzumi o'rnatildi. Bu esa amirlikdagi voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Negaki, sotsialistik inqilob g'oyasini boshqalarga yoyishga intilgan bolsheviklar chegaradosh Buxoroni o'z mo'ljaliga olgan edilar. Shu bois Rossiya Federatsiyasi, qolaversa, sovet Turkistoni, uning mutasaddilari har bir vaziyatdan foydalanib, Buxoro ichki ishlariga aralashib, muxolifatchi kuchlarni qo'llab-quvvatlab, amirlik tuzumini qulatish harakatida bo'ldilar. 1917 yil 2 dekabrda bo'lib o'tgan Buxor amirligidagi rus posyolkalari vakillarining II oblast syezdida Rossiya va Turkiston hukumatining Buxoro ishlari bo'yicha hay'ati saylandi. Oradan ko'p o'tmay Yosh buxoroliklar firqasi fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi delegatsiyani keskin va qat'iy chora ko'rish uchun toshkentga jo'natishdi. Ular Buxoroda ochiq qo'zg'olon ko'tarish uchun sharoit yetildi, unda kamida 30000 kishi ishtirok etadi, deb Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari Sovetini ishontirdilar. [Q. Rajabov, R. Maqsudov Qiziltepa tarixi.- Toshkent: "Muharrir", 2011] Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari Soveti raisi F. Kolesov boshchiligidagi qizil gvardiyachilar qo'shini Buxoro amirligiga 1918 yil 28 fevral – 1 martda xujum qildi. Janglar 17 martgacha davom etdi. Bu hujum tarixga Kolesov bosqini sifatida kirdi. 1918 yil 1 martda Yangi Buxoroga F. Kolesov boshchiligidagi 3500 kishilik qizil askarlar otryadi zambarak va pulemyotlar bilan qurollangan holatda yetib keldi.



Yosh buxoroliklar bilan Kolesov o'zaro kelishib, Amir Olimxon nomiga talabnoma tayyorlandi. Talabnomada Buxoroda so'z, matbuot va boshqa demokratik erkinliklar joriy qilinishi, amir huzuridagi hukumat tarqatib yuborilib, uning o'rniga Yosh buxoroliklar Ijroiya Qo'mitasidan iborat yangi hukumat tuzilishi, amirlikdagi qo'shin qurolsizlantirilishi ta'kidlangan edi. Amir Olimxon 24 soat ichida shartlarga rozi ekanligini bildirsa, u o'z o'rnida qoldiriladigan bo'ldi. Ammo amir o'z javob maktubida islohotlarni sekin-asta amalga oshirishini ma'lum qildi. Bu javobdan qanoatlanmagan Kolesov 2 marta hujum boshlaydi. Dastlabki to'qnashuvda ortga chekingan Amir Olimxon islohotlar o'tkazishga rozilik berib, kolesovga o'z farmonini jo'natadi. Natijada o'rtada muzokaralar boshlanadi. Amir Olimxon bu vaziyatdan foydalanib, 35000 kishilik lashkar to'playdi. 5 mart kuni Kolesov qo'shinlari Toshkent tomonga chekinadi. Buning sababi yosh buxoroliklar keng xalq ommasining ishonchini qozona olmaganligi emas, balki qizil askarlar, garchi ular safida yosh buxoroliklar bo'lsa ham, buxoroliklar tomonidan bosqinchi va istilochi sifatida qabul qilinganligi bo'ldi.³ 11 martda Toshkentdan kelgan yordamchi kuchlar Karmanani egallashadi. Shundan so'ng amir sulh tuzishga majbur bo'ladi. 1918 yil 25 marta Qiziltepada Rossiya va Buxoro vakillari tomonidan shartnoma imzolandi. Bu shartnoma tarixda Qiziltepa bitimi sifatida mashhur bo'lib, u 9 banddan iborat. Ushbu bitim imzolangandan so'ng F. Kolesov o'z qo'shini bilan talon-taroj qilingan katta boylik bilan Toshkentga qaytdi.

Xivada xonlik tuzumi ag'darilgandan so'ng, sovet hokimiyati bor e'tiborini Buxoro amirligini tugatish, uni sovetlashtirish va ruslashtirishga qaratdi. Bolsheviklarning bu rejasini amalga oshirishga imkoniyat 1920 yil bahor-yozida yetila bordi. Buxoro amirligi Turkiston ASSRga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rmoqda va uni qaytarish kerak, degan soxta bahonalar bilan sovet qo'mondonligi 1920 yil yozida katta miqdordagi qo'shinlarini amirlik chegaralariga yaqin joyga keltirib qo'ydi. 1920 yil 21 mayda RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarining o'rinbosari L.M.Karaxan bolsheviklar hukumati boshlig'i V.I.Leninga Buxoro amirligini bosib olish haqidagi telegrammasini jo'natadi. Amir olimxon vaziyatni



yumshatish uchun 1920 yil 8 iyunda Mirzo Ma'di Xo'jaboy boshchiligidagi Buxoro elchilarini Moskvaga jo'natdi. Ammo vaziyat jiddiy tusga kirib bo'lgandi. 1920 yil 12 avgustda M.V. Frunze amirlikni tugatish maqsadida 4 zarbdor guruhdan iborat Samarqand-Buxoro frontini tuzishga buyruq berdi. Shu tariqa Buxoro shahri atrofida 7000 piyoda, 2500 otliq, 46 ta to'p, 230 ta pulemyot, 10 ta broneavtomobil, 5 ta bronepoyezd va 12 ta aeroplan shay holatga keltirildi. Bu paytda Buxoro hukumati ixtiyorida esa 8725 piyoda askar va 7850 otliq askarlar, faqat 150 ga yaqin eski pilta to'plar, bir necha o'nlab zamonaviy to'plar, 20 pulemyot bo'lgan. 1920 yil 16-18 avgustda Chorjo'yda Buxoro kommunistlarining 4-syezdi bo'lib, u amirga qarshi qo'zg'olon ko'tarish to'g'risida qaror qabul qilgan. Tarixga "yalpi qo'zg'olon" nomi bilan kirgan bu qo'zg'olon 23 avgustda boshlandi¹[O'zbekiston yangi tarixi.2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.- B. 126-127]. M.V. Frunze "yordam" so'rash to'g'risidagi murojaatni olgach, Turkiston fronti qo'shinlarini 4 ta zarbdor guruhga (Samarqand, Kattaqo'rg'on, Chorjo'y va Kogon) ajratdi. Samarqand guruhi 29-30 avgustda Shahrisabz-Kitob yo'nalishi bo'ylab harakat qilib, qarshi va G'uzorni egallashi, Kattaqo'rg'on guruhi esa Eski Chorjo'yni egallab, Amudaryoning Afg'oniston bariqchalarini nazorat qilishi, Forob va Qorako'lni bosib olib, qo'shimcha buyruqni kutib turishi lozim edi. Asosiy vazifa Kogon guruhi zimmasiga yuklandi. U Eski Buxoro shahrini bosib olishi, Amir Olimxonni asrga tushirishi va Arki Oliyidagi xazinani egallashi kerak edi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilishi mintaqaning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida keskin burilish yasadi. Xususan, Buxoro amirligi hududida bu o'zgarishlar yanada chuqurroq va murakkabroq tus oldi. Buxorodagi yangi siyosiy vaziyatning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshdi. Sovet hokimiyati amirlik davridagi ijtimoiy tabaqalanish, diniy va madaniy muassasalarni isloh qilishga kirishdi. Bu esa mahalliy aholi, xususan diniy ulamolar, yer egalari va boshqa ijtimoiy qatlamlar tomonidan salbiy qarshi olindi. Yosh buxorolilar harkati ham bu davrda o'zining yangi siyosiy bosqichiga chiqdi. Lekin



shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yosh buxoroliklar harakatini oddiy xalq yoqlamaydi. Buxoro asta-sekin Sovet Ittifoqi tarkibiga siyosiy va iqtisodiy jihatdan integratsiyalasha boshladi. Bu jarayonlar davomida ko'plab mahalliy ziyolilar yangi siyosiy tuzumni qo'llab-quvvatlab, islohotlarda faol ishtirok etdi. Ammo bu islohotlar ko'pincha majburiy xarakterda bo'lib, xalqning kundalik turmush tarziga mos kelmasligi sababli qarama-qarshiliklarga sabab bo'ldi. Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng Buxorodagi siyosiy vaziyat murakkab va ziddiyatli bo'ldi. Buxoro hududidagi siyosiy jarayonlar mustaqil siyosiy subyekt sifatida amirlik tarixining yakun topishi, sovet modelidagi boshqaruv tizimining barpo etilishi va mintaqaning butunlay yangi davrga qadam qo'yganini anglatadi. Bu o'zgarishlar keyinchalik O'zbekistonda sovet davri siyosiy tizimining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Q. Rajabov O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Birinchi jild (1900-1939). – Toshkent : Fan, 2024.
2. O'zbekiston yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.- Toshkent.
3. Q. Rajabov, R. Maqsudov Qiziltep tarixi.- Toshkent: "Muharrir", 2011
4. Fayzulla Xo'jayev. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar (qayta nashr). – Toshkent. Fan. 1997
5. O'zbekiston tarixi (1917-1991). Birinchi kitob. 1917-1939 yillar. Mas'ul muharrirlar: R. Abdullayev, M. Rahimov, Q. Rajabov.- Toshkent: O'zbekiston, 2019